

## 7. FORS-MAJOR.

- 7.1. Fors-major holatlari (yong'in, toshqin, zilzila, harbiy harakatlar, epidemiya) yuzaga kelganligi sababli TARAFLAR SHARTNOMA bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarilmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.
- 7.2. Fors-major natijasida SHARTNOMA bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonsizligi yuzaga kelgan TARAF 3 (uch) ish kuni ichida vakolatli organ hujjatlari ilova qilingan holda, ushbu holatlarning paydo bo'lishi va bekor qilinishi to'g'risida boshqa tomonga xabar berishga majburdir.
- 7.3. Agar fors-major holatlari TARAFLARDAN birining 30 (o'ttiz) kundan ko'proq vaqt davomida o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, unda boshqa TARAF bitimni amal qilish muddati tugashidan oldin bekor qilishga haqlidir. Shu bilan birga, SHARTNOMANI muddatidan oldin bekor qilish sababli TARAFLAR tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash to'g'risidagi da'volar taqdim etilishi mumkin emas.

## 8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI.

- 8.1. SHARTNOMA amal qilish muddati 05.01.2022 yildan 31.12.2022 yilgacha. SHARTNOMA imzolanganidan keyin tomonlarda ro'yxatdan o'tgandan so'ng, byudjet tashkilotlarida esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tganidan kuchga kiradi.
- 8.2. Agar SHARTNOMANI imzolash va BUYURTMACHIGA ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan kundan boshlab 20 kalendar kun o'tgan bo'lsa, SHARTNOMA imzolanmagan va IJROCHIGA qaytarilgan bo'lsa, IJROCHI SHARTNOMANI haqiqiy emas (tuzilmagan) deb hisoblash huquqini o'zida saqlab qoladi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng imzolangan SHARTNOMA qaytarilgan taqdirda, IJROCHI SHARTNOMAVIY munosabatlarni yangilash huquqiga ega.
- 8.3. TARAFLAR tomonidan SHARTNOMANING bandlari bajarilmaganligi sababli, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha SHARTNOMA bekor qilinishi mumkin.
- 8.4. Ikki TARAF ham kutilgan bekor qilish kunidan 10 (o'n) ish kun oldin boshqa tomonga yozma ravishda xabardor qilib, bitimni bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.
- 8.5. TARAFLAR bank va pochta rekvizitlari o'zgarishi to'g'risida bir-biriga zudlik bilan xabar berish majburiyatini oladilar.

## 9. BOSHQA SHARTLAR.

- 9.1. TARAFLAR tomonidan SHARTNOMA imzolanganidan so'ng tuzilgan ilova, bayonoma, qo'shimcha bitim, boshqa hujjatlar, agar ular taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsa, faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilishi va ro'yxatdan o'tkazilishi sharti bilan amal qiladi va SHARTNOMANING ajralmas qismi hisoblanadi.
- 9.2. TARAFLAR ushbu bitim, unga qo'shimchalar va qo'shimcha SHARTNOMALAR, hisob-fakturalar va bajarilgan ishlar dalolatnomalari, shuningdek uni rasmiylashtirish, o'zgartirish yoki tugatish uchun tegishli bo'lgan boshqa hujjatlar bo'yicha belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan qo'l yozuvi va faksimil imzolarning, elektron raqamli imzolarning teng qonuniy kuchini tan olishadi.
- 9.3. SHARTNOMA bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.
- 9.4. XIZMATLAR hajmi o'zgariganda, shu jumladan yangi shaxsiy kompyuterlar, serverlar va ofis uskunalari ishga tushirilganda, TARAFLAR imzolagan SHARTNOMAGA qo'shimchalarga o'zgartirishlar kiritiladi yoki yangi qo'shimchalar yoki qo'shimcha SHARTNOMALAR tuziladi.
- 9.5. SHARTNOMA 2 (ikki) nusxada, Tomonlarning har biri uchun 1 (bitta) nusxada, davlat tilida tuzilgan, ikkala nusxasi ham bir xil qonuniy kuchga ega.

## 10. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOLARI.

### BUYURTMACHI

Мундоби Раи ҶЭТ, МСБ

Manzil: Бермет-Бериш/н.  
Tel: 444-21-36 444-01-22  
STIR: 200372832 OKED: 91531  
H/r: 40032286035240707411005400.  
Moliya Vazirligi G'aznachiligi  
STIR: 201122913 MFO: 20014  
ShHV: 2340 2000 30010001010.

Bank nomi: Мундоби Раи Банк Ташкент

Б. Парманов.

Rahbar

### IJROCHI

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash  
vazirligi "IT-MED" MChJ

Manzil: Tashkent sh., Shayxontoxur tumani,  
Navoi ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (99871) 2037071.  
e-mail: itmed@ssy.uz  
H/r: 20208000800957658001  
STIR: 305926021, OKED: 62020, MFO: 00432  
Bank nomi: "Uz sanoatqurilishbank" ATB  
Yashnobod filiali



Xakimov A.B.

Лопухов Сергей